O‘zMETH 34-329:2026

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT XODIMLARINI ROTATSIYA QILISH TARTIBI

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
Toshkent

So‘zboshi

1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

2 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning 2026.07.09 dagi 215-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

3 BIRINCHI BOR KIRITILGAN

Tasdiqlayman

“O‘zbekiston MET” AJ
boshqaruvi raisi

A.A. Nazirov

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT XODIMLARINI ROTATSIYA QILISH TARTIBI

Amalga kiritish sanasi 2026.10.09

1 Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Tartib “O‘zbekiston milliy elktr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatida (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning hududiy filiallar o‘rtasida rotatsiya qilish tartibi, shartlari va mexanizmlarini belgilaydi.

1.2 Rotatsiya – Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xodimlarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida boshqa lavozimlarga yoki tarkibiy bo‘linmalarga belgilangan muddatga o‘tkazish jarayonidir.

1.3 Mazkur Tartib Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasida faoliyat yuritayotgan xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi.

1.4 Rotatsiya jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, korporativ boshqaruv qoidalari hamda Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2 Rotatsiyaning maqsadi va vazifalari

2.1 Rotatsiya quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- xodimlarning kasbiy malakasi va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish;
- korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish;
- ichki nazorat funksiyasining mustaqilligi va xolisligini ta’minlash;
- boshqaruv zaxirasini shakllantirish;
- strategik muhim, mablag‘lar aylanmasi tez va yirik hamda manfaat evaziga og‘dirish ehtimoli yuqori tashkilotlarda xodimlarning uzoq muddat ishlashining oldini olish;
- nazorat samaradorligini oshirish.

2.2 Rotatsiya jarayoni quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- shaffoflik;
- xolislik;
- adolatlilik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- komplayens talablariga rioya qilish;
- kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish;
- boshqaruv tizimining barqarorligini ta’minlash.

3 Rotatsiya qo‘llaniladigan lavozimlar

3.1 Rotatsiya quyidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi xodimlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin:

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasining hududiy komplayens-nazorat xodimlariga;

- Jamiyat boshqaruvi raisining ko‘rsatmasiga asosan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasining markaziy apparatida faoliyat yuritadigan xodimlarga.

3.2 Rotatsiya qilinmaydigan xodimlar:

- homilador ayollar;
- uch yoshgacha farzandi bo‘lgan ayollar;
- sog‘lig‘i sababli boshqa lavozimda ishlashi mumkin bo‘lmagan xodimlar;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa toifadagi shaxslar.

4 Rotatsiya muddati

4.1 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi hududiy komplayens-nazorat xodimlarining bir hududiy filialda ishlash muddati 5 (besh) yildan oshmasligi lozim.

4.2 Jamiyatning markaziy apparati xodimlari uchun muddat belgilanmaydi va ushbu Tartibning 3.1 kichik bo‘limining ikkinchi xat boshiga muvofiq ish joyi o‘zgartirilishi mumkin.

4.3 Zarurat tug‘ilganda Jamiyat rahbari qaroriga asosan rotatsiya muddati uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin.

4.4 Quyidagi hollarda navbatdan tashqari rotatsiya amalga oshiriladi:

- korrupsion holatlarga aloqadorligi va/yoki manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda muddatidan oldin rotatsiya (qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini bekor qilishgacha) amalga oshirilishi mumkin.
- xizmat tekshiruvi yoki audit natijasiga ko‘ra;
- korrupsiya xavfi oshgan taqdirda;
- Jamiyat rahbarining qaroriga asosan.

5 Rotatsiyani amalga oshirish tartibi

5.1 Rotatsiya quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

- Jamiyat boshqaruvi yoki rahbarining qarori;
- Jamiyat Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig‘ining tavsiyasi;
- Jamiyat Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimining korrupsion holatlarga aloqadorligi tasdiqlanganda;
- Jamiyat Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimining ish faoliyati hududida yaqin qarindoshlarining ma’muriy bo‘linmalarida ishlayotganligi (manfaatlar to‘qnashuvi) holatlari aniqlanganda;
- tasdiqlangan rotatsiya rejasiga muvofiq.

5.2 Rotatsiya jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- rotatsiya qilinadigan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish;
- xodimlarni baholash va tanlash;
- rotatsiya rejasini A-ilovaga muvofiq tasdiqlash (rotatsiya rejasi muddati kelganda Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi bilan kelishilgan holda tayyorlanib, Jamiyat boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi);
- xodimni boshqa lavozimga o‘tkazish bo‘yicha buyruq chiqarish;
- lavozimni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirish.

5.3 Rotatsiya to‘g‘risida xodim kamida 1 (bir) oy oldin yozma ravishda xabardor qilinadi.

6 Rotatsiya jarayonida xodimlarning huquqlari va majburiyatlari

6.1 Xodimlarning huquqlari:

- yangi lavozim bo‘yicha zarur ma’lumotlar va yo‘riqnomalarni olish;
- mehnat sharoitlari va ish haqi bo‘yicha qonunchilikda belgilangan kafolatlardan foydalanish;
- rotatsiya qaroriga nisbatan belgilangan tartibda murojaat qilish.

6.2 Xodimlarning majburiyatlari:

- lavozimni topshirish-qabul qilish jarayonini to‘liq amalga oshirish;
- yangi lavozim vazifalarini belgilangan tartibda bajarish;
- xizmat sirini saqlash.

7 Rotatsiyani rejalashtirish va nazorat qilish

7.1 Rotatsiya jarayonini tashkil etish va muvofiqlashtirish Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

7.2 Rotatsiya jarayoni ustidan nazorat Jamiyat boshqaruvi raisining o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

8 Yakuniy qoidalar

8.1 Mazkur Tartib Jamiyat boshqaruvi raisining buyrug‘i bilan amalga kiritiladi.

8.2 Mazkur Tartibga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Jamiyat boshqaruvi raisining buyrug‘i bilan kiritiladi.

8.3 Mazkur Tartib talablariga rioya etilishi ustidan nazorat tegishli tarkibiy bo‘linmalar zimmasiga yuklanadi.

A-ilova

(majburiy)

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xodimlarini rotatsiya qilish rejasi

T/r	Xodimning F.I.SH.	Lavozimi	Amaldagi xizmat joyi	Ish boshlagan sana	Rotatsiya muddati	Yangi xizmat joyi	Rotatsiya sanasi	Asos

B-ilova

(majburiy)

Xodimning “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xodimlarini rotatsiya qilish Tartibi” bilan tanishganligi va rotatsiya shartlariga roziligi to‘g‘risida

Men, quyida imzo chekuvchi:

Familiyasi, ismi, sharifi: _____

Lavozimi: _____

Tarkibiy bo‘linma: _____

Ushbu bilan Jamiyatda amal qilayotgan **“Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xodimlarini rotatsiya qilish Tartibi”** bilan to‘liq tanishganligimni tasdiqlayman.

Mazkur Tartibda belgilangan:
- ichki nazorat xodimlarini rotatsiya qilish tartibi;
- rotatsiya muddatlari;
- manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish choralari;
- xizmat joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq talablar bilan tanishdim va ularga rioya qilish majburiyatini zimmamga olaman.

Shuningdek, xizmat zaruratidan kelib chiqib, Jamiyat boshqaruvi raisining qarori asosida belgilangan tartibda **rotatsiya qilinishim mumkinligiga rozilik bildiraman.**

Imzo: _____

F.I.SH.: _____

Sana: 202___-yil ____-_____

C-ilova

(majburiy)

Mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xodimlarini rotatsiya qilish bo‘yicha qo‘shiladigan qo‘shimcha bandlar

.. Xodim o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida Jamiyatda amal qilayotgan **“Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xodimlarini rotatsiya qilish Tartibi”** talablariga rioya qilish majburiyatini oladi.

.. Jamiyatda korrupsiya xavfini kamaytirish, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va ichki nazorat faoliyatining xolisligi hamda samaradorligini ta’minlash maqsadida xodim xizmat zaruratidan kelib chiqib, belgilangan tartibda Jamiyatning boshqa tarkibiy bo‘linmalariga yoki hududiy filiallariga **rotatsiya qilinishi mumkin.**

.. Rotatsiya quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- belgilangan rotatsiya muddati tugaganda, tasdiqlangan rotatsiya rejasiga muvofiq;

- Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimining korrupsion holatlarga aloqadorligi tasdiqlanganda;

- Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimining ish faoliyati hududida yaqin qarindoshlarining ma’muriy bo‘linmalarida ishlayotganligi (manfaatlar to‘qnashuvi) holatlari aniqlanganda;

- xizmat zaruratiga ko‘ra Jamiyat rahbarining qarori asosida.

Xodim mazkur shartlarga rozilik bildiradi va rotatsiya amalga oshirilgan taqdirda mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq yangi xizmat joyida o‘z vazifalarini bajarish majburiyatini oladi.

Axborot ma’lumotlari

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan **ishlab chiqilgan**

Xizmat boshlig‘i — A.Z. Raxmonov

Kelishilgan

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari — B.X. Murodov

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari — S.S. Artikov

Boshqaruv raisining investitsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari — F.M. Qurbonov

Boshqaruv raisining moliyaviy-iqtisodiy
masalalar bo‘yicha o‘rinbosari — A.A. Yuldashev

Iqtisodiyot va rejalashtirish
boshqarmasi boshlig‘i — P.N. Xidirov

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi
bosh buxgalteri — S.N. Xolboyev

Xaridlar transformatsiya
ofisi boshlig‘i — T.A. Rasulov

Sanoatda kooperatsiya aloqalarini
kengaytirish, mahalliylashtirish
va standartlashtirish bo‘limi boshlig‘i — I.M. Begaliyev

Inson resurslari bilan ishlash
va rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i — I.I. Xamidov

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
boshqaruv raisi maslahatchisi — O.A. To‘xtashev

Yuridik boshqarmasi boshlig‘i — Sh.S. Axmedov

Norma nazoratchisi — E.R. Kazakova